Akademik Mahmud Salohiddinov tavalludining 85 yilligiga bag‘ishlangan konferensiya bo‘lib o‘tdi

2018-yil 22-noyabr kuni O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, akademik Mahmud Salohiddinov xotirasiga bag‘ishlangan “Differensial tenglamalarning zamonaviy muammolari va ularning tadbiqlari” mavzusida Respublika ilmiy konferensiyasi o‘tkazildi. Unda O‘zR FA rahbariyati, FA Matematika instituti jamoasi hamda akademikning oila a’zolari va shogirdlari, talabalar ishtirok etishdi. Konferensiyada FA prezidenti B.S.Yuldashev so‘zga chiqib, akademik M.Salohiddinov yuksak salohiyatga ega matematik bo‘lganligini va o‘ziga xos maktab yarata olganligini gapirib, bu sohadagi yutuqlariga hamda ilmiy merosiga alohida to‘xtalib o‘tdi.

Shuningdek, konferensiyada Farg‘ona davlat universiteti professori A.Q.O‘rinov, Qozog‘iston Milliy Fanlar akademiyasi akademiklari T.Sh.Kalmenov va M.A.Sadibekov hamda respublikamiz yetakchi matematik olimlarining differensial tenglamalarning zamonaviy muammolari va ularning tadbiqlariga doir ilmiy ma’ruzalari tinglandi.